



Ajratib ko'rsatilgan harflarni o'qing.

**Dayo'uismqrthvatreachxreisuitbvuyiyefobyf
ogstabndptyisaropadfg, dxreumqrshtreamyef
oadfgnuikyefoubndlt ydkhvitkhvyrbndiyfob.**



Izza

Muhabbat Hamidova

Shahlo – Komilaning dugonasi. Komilaning oyisi uni juda sarishta, chaqqon, oyisining dastyori, deb maqtangani-maqtagan. Komilaning ham dugonasiga havasi keladi. Doim birga o'ynaydi. Komila, odatdagidek, darslarini tayyorlab bo'lgach, dugonasining yoniga chiqdi. Shahlo hovliga suv sepayotgan ekan.

– Komila, birpas kutib tur, hovlini supurib olay, keyin o'ynaymiz, – dedi Shahlo qo'liga supurgisini olib.

– Mayli, unda men ko'chaga suv sepib turaman, – dedi Komila va bo'sh chelakchani qo'liga oldi.

Shahlo hovlini supurib bo'lgach, to'plangan axlatini xokandozga soldi-da, olib borib ko'cha chetidagi suv to'lib oqayotgan ariqchaga tashladi.

– Nega bunday qilding? – Komila xafa bo'lib

so'radi. – Axir, o'zing hozir shu ariqchadan suv olib hovliga sepib changini bostirding, hovli salqin bo'ldi. Men gullaringni shu suvdan sug'ordim. Suvdan yaxshilik ko'rib, endi unga yomonlik qilasanmi? Qara, tip-tiniq suvning yuzini loyqalatding. Bu suv qo'shnining hovlisidan ifloslanib oqadimi endi?

– Nega jahling chiqadi? Hozir tinib qoladi. Men xazonlarni ham doim suvga supurib tashlayman. Hech narsa qilmaydi, buvim aytgan: “Suv yetti marta dumalasa, toza bo'larkan”, – deya beparvo tirjaydi Shahlo.

– Mening buvim esa boshqacha o'rgatgan: suvga tupurish, axlat tashlash gunoh. Suv – ko'pchilikning rizqi. U ham nonday aziz. Suvsiz hayot bo'lmaydi, nafaqat odamlar, balki jonivorlar, dov-daraxtlar ham suv bilan tirik. Suvni xor qilgan xor bo'ladi, deyishadi.



Agar tashlangan axlatlar quvurga tiqilib qolsa, ko'chaga suv toshib ketadi-ku.

– E, bir xokandoz axlat bilan suv tosharkanmi? O'zing hovli supurmaganing uchun bilmaysan-da. Hozir ko'pchilik qo'shnilar suvga supuradi.

– Gapingni qara, sirayam o'zingga o'xshamaysan. Sendan xafaman, axir ustozimiz bizga necha marta suvning foydasi haqida aytib bergan. Suvni asrash burchingiz, degan. Endi men seni “Yashil soqchi” guruhidan chiqarishlarini so'rayman. Sen tabiatning do'sti emas ekansan. O'zim ham senga dugona bo'lmayman. Ol chelagingni.

Komila chelakni Shahlonging qo'liga tutqazdi-da, keta boshladi.

– Komila, jon Komila, to'xta, to'xtay qolgin. Endi boshqa bunday qilmayman...



1. Hikoyada qanday muammo ochiq ko'rsatilgan?
2. Hikoya qahramonlari orqali muallif qanday insoniy fazilatlarini ulug'lagan?
3. Sizningcha, hikoya nima uchun “Izza” deb nomlangan?
4. Agar Shahlo sizning oldingizda bo'lib qolganida nima degan bo'lar edingiz?
5. Shahlonging qaysi gaplarini siz ham to'g'ri, deb tasdiqlay olasiz?
6. Siz hovlini supurgandan keyin xazonlarni nima qilish kerak deb hisoblaysiz?



Berilgan gaplarni izohlab bering:

Tip-tiniq suvning yuzini loyqalatding.

Suv yetti marta dumalasa, toza bo'larkan.

Suv – ko'pchilikning rizqi.

Hikoyadan suvni asrash haqida aytilgan gaplarni topib o'qing.

Har bir qahramonga xos fazilatlarni ayting.

Mavzuga mos maqol aytib, mazmunini tushuntiring.



Topishmoqning javobini moslashtiring.

a) buloq	Tog'dan kelar toshlar kabi, Egarlangan otlar kabi.
b) daryo	Uzun-uzun iz ketdi, Uzun bo'yli qiz ketdi.
d) ariq	O'yib oldim, izi yo'q.
e) suv	Qozonda emas qaynaydi, Qishin-yozin tinmaydi.



Hikoyani o'qing. Shaxsini o'zgartirib, qayta so'zlab bering.